

ADVOKATLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Xabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

*Toshkent davlat yuridik universitetining
professori, yuridik fanlar nomzodi*

Esanova Zamira Normuratovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining
professori, yuridik fanlari doktori*

Ibratova Feruza Babakulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining
professori, yuridik fanlari doktori*

Javlonbek Turaev

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Advokatlik faoliyati yo`nalishi magistr talabasi*

Annotatsiya: Advokatlik faoliyatini litsenziyalash va uning asoslari, shuningdek, sohada yuzaga keladigan holatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash, ularni kompleks ravishda tadqiq qilish hamda mazkur sohani rivojlantirish va zamon talablariga hamohang bo'lishi uchun takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy maqolaning asosiy maqsadi hisonlanadi.

Kalit so`zlar: advokatura, qonun hujjatlari, advokatura institute, farmon, davlat boji, advokatlik byurolari, advokatlik firmalari, advokatlar hay'atlari, bazaviy hisoblash, qonunchilik, kodekslar va huquq me'yorlari, yuridik maslahatxonalar.

**ОСОБЕННОСТИ ЛИЦЕНЗИРОВАНИЯ АДВОКАТСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибаевич

*Профессор Ташкентского государственного юридического университета,
кандидат юридических наук*

Есанова Замира Нормуратовна

*Профессор Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук*

Ибратова Феруза Бабакуловна

*Профессор Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук*

Жавлонбек Тураев

*Магистрант Ташкентского государственного
юридического университета*

Аннотация: Основной целью данной статьи считается определение теоретические и практические аспекты проблем, связанных с лицензированием адвокатуры и ее основ, а также ситуаций, возникающих в данной сфере, всесторонне исследовать их, разработать предложения и рекомендации по развитию данного направления. поле и привести его в соответствие с требованиями времени.

Ключевые слова: адвокатура, правовые документы, учреждение адвокатуры, постановление, государственная пошлина, адвокатские конторы, юридические фирмы, коллегии адвокатов, базовый расчет, законодательство, кодексы и правовые нормы, юридические консультации.

PECULIARITIES OF LAWYER LICENSING ACTIVITIES

Khabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

Professor of Tashkent State University of Law,

Ph.D. in Law

Esanova Zamira Normuratovna

Professor of Tashkent State Law University,

Doctor of Law

Ibratova Feruza Babakulovna

Professor of Tashkent State Law University,

Doctor of Law

Javlonbek Turaev

Master student of the Tashkent State

Law University

Annotation: The main purpose of this article is to determine the theoretical and practical aspects of the problems associated with the licensing of the bar and its foundations, as well as the situations that arise in this area, to comprehensively explore them, to develop proposals and recommendations for the development of this area. field and bring it into line with the requirements of the time.

Key words: advocacy, legal documents, establishment of the advocacy, resolution, state fee, law firms, law firms, bar associations, basic calculation, legislation, codes and legal norms, legal consultations.

“Qonun ustuvorligi hamda fuqarolar va ularning ko‘ngilli biriashmalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining hurmat qilinishini tan oladigan har qanday davlatda advokatura muhim huquqiy institut hisoblanadi. Har bir fuqaroning o‘z farovonligiga ishonchi jamiyatda advokaturaning uyushqoqligi, mustaqilligi va huquqiy himoyalanganligi

darajasiga mutanosibdir²⁸. Chunki advokaturaning asosiy vazifasi fuqaro va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda butun jamiyatga va uning a'zolariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yuridik xizmatlar ko'rsatishdan iboratdir²⁹. "Ommaviy institut va huquqni himoya qilishning ijtimoiy ko'rinishi bo'lgan advokatura jamiyat uchun hayotiy zarur bo'lgan funksiyalarni bajaradi"³⁰.

Mazkur bo'lim litsenziya olish uchun talab etiladigan barcha bosqichlarni qamrab olgan. Jumladan, Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo'lish tartibiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

"1-bosqich: "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida"gi Nizomga asosan, litsenziya olish uchun advokat maqomini olishga talabgor shaxs malaka imtihonini topshirish maqsadida doimiy yashash joyidagi hududiy boshqarmaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- malaka imtihonini topshirish to'g'risidagi ariza;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining nusxasi;
- oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom (nusxasi olinib, asli qaytariladi);
- mehnat daftarchasi (nusxasi olinib, asli qaytariladi) yoki uning ish joyida tasdiqlangan nusxasi;
- talabgor to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan shaxsiy varaqa;
- talabgor stajirovka o'tagan advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan tavsifnoma;
- 3 x 4 sm hajmdagi (so'nggi 12 oy ichida olingan) 2 dona rangli fotosurat;
- talabgorning sudlanganligi yoki sudlanmaganligi hamda muomalaga layoqatliligi to'g'risida ma'lumot"³¹.

Malaka imtihonini topshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar talabgor tomonidan hududiy boshqarmaga bevosita, pochta aloqa vositasi orqali yoki ularning olingani to'g'risidagi bildirishnoma bilan elektron shaklda taqdim etiladi³².

Talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha bevosita, pochta aloqasi vositasi orqali yoki elektron shaklda mas'ul kotib tomonidan qabul qilinadi, ro'yxat nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda talabgorga yuboriladi"³³.

²⁸ Кодиралиев С., Тулаганова Г. Роль адвоката в реализации права на защиту и квалифицированную юридическую помощь, установленного Конституцией Республики Узбекистан //Review of law sciences. – 2020. – Т. 1. – №. Спецвыпуск. – С. 152-156.

²⁹ ЮНУСОВ Х. ЮРИДИК ХИЗМАТ ВА КАСБИЙ ФАОЛИЯТ: МЕХНАТ БОЗОРИДАГИ ИМКОНИАТЛАР, ЮРИДИК ФАОЛИЯТ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА АДВОКАТЛИК ЛИЦЕНЗИЯСИ (АҚШ ТАЖРИБАСИ) //ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 115-120.

³⁰ Матмуротов А. Малака имтиҳонини топшириш тартибини такомиллаштириш масалалари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 12/S. – С. 205-221.

³¹ Нейматов Ж. Адвокатура институтини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 8-13.

³² Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.

³³ Матмуротов А. Ўзбекистонда адвокатура институтининг ривожланиш босқичларида адвокат мақомига эга бўлишга қўйилган талаблар таҳлили //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 19-29.

2-bosqich: "Malaka imtihonini topshirish uchun materiallarni tayyorlab bo'lganidan keyin mas'ul kotib ularni malaka komissiyasining raisiga masalani komissiya majlisining kun tartibiga kiritish uchun taqdim etadi"³⁴.

Malaka imtihoni mas'ul kotib tomonidan talabgorlardan zarur hujjatlar qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir oy ichida o'tkaziladi.

Talabgor malaka komissiyasi majlisining o'tkazilishidan kamida o'n kun oldin majlis o'tkaziladigan sana, vaqt va joy to'g'risida xabardor qilinadi"³⁵.

Malaka imtihoni O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tasdiqlagan ro'yxatdagi savollardan tuzilgan imtihon biletleri asosida o'tkaziladi"³⁶.

Talabgorni malaka imtihonini topshirgan deb topish uchun talabgor to'plagan ball malaka imtihonida olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 60 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, talabgorning malakaviy bilim darajasini sinash tartibi, malaka imtixonlari uchun tuzilgan savollar, imtixonlarni o'tkazish tartibi bugungi kun va zamon talablariga javob bermaydi. Bizning fikrimizcha, malaka imtixonlarini ikki bosqichda o'tkazish, ya'ni birinchi bosqichda onlayn test topshirish, ikkinchi bosqichda esa advokatura, kasb etikasi qoidalari, kasbiy faoliyat bo'yicha og'zaki savol-javob o'tkazish orqali amalga oshirish zarur. Birinchi bosqichda test sinovlari bo'yicha belgilangan ballni to'plagan talabgor ikkinchi bosqichga og'zaki savol-javobga ruxsat etilishi lozim. Malaka imtixonlarini o'tkazishda shaffoflik, ochiqliklikni ta'minlash maqsadida imtixon jarayoni onlayn rejimida translatsiya qilinishi va ushbu jarayon Advokatlar palatasi tomonidan nazorat qilib borilishi lozim."³⁷

3-bosqich: "Malaka imtihonini topshirish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi quyidagi qarorlarning birini qabul qiladi:

1. talabgorni malaka imtihonini topshirgan deb topish to'g'risida;
2. talabgorni malaka imtihonini topshirmagan deb topish to'g'risida"³⁸.

4-bosqich: Tanlangan har bir ixtisoslik bo'yicha malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor litsenziya olish uchun tegishli adliya organiga uch oy ichida murojaat qilishi kerak"³⁹.

Bu muddatni o'tkazib yuborgan talabgor litsenziya olish uchun adliya organiga malaka imtihonini topshirganidan keyingina murojaat qilishi mumkin.

³⁴ Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG 'LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – С. 96-104.

³⁵ Nurumov D. Адвокат томонидан тадбиркорлик фаолиятига юридик хизмат кўрсатишнинг ҳуқуқий механизми //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 44-48.

³⁶ Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.

³⁷ Давлятов В. Адвокатура институтининг ташкилий шакллари сифатида адвокатлик тузилмаларининг мақоми //Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 70-79.

³⁸ Davlyatov V. Адвокатура институтини такомиллаштиришда юридик маслахатхонанинг ҳуқуқий мақоми //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2019. – №. 3. – С. 20-22.

³⁹ Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING ROLI VA AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 196-207.

Litsenziyalarni berish talabgorning doimiy yashash joyidagi adliya organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi⁴⁰.

Litsenziya O'zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi va uning amal qilish muddati cheklanmaydi.

Litsenziya olish uchun malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor adliya organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- litsenziya berish to'g'risida familiyasi, ismi, otasining ismi va pasport ma'lumotlari ko'rsatiladigan ariza⁴¹;

- talabgor tomonidan uning arizasini adliya organi ko'rib chiqishi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Shuningdek, adliya organi talabgorning quyidagi hujjatlarini Advokatlar palatalari huzuridagi malaka komissiyalaridan mustaqil ravishda oladi:

- pasport nusxasi;

- oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi;

- mehnat daftarchasi nusxasi;

- talabgor to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy varaqa;

- malaka komissiyasining malaka imtihonini topshirganligi to'g'risidagi qarori⁴².

Talabgordan ushbu Nizomda nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi⁴³.

Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar adliya organiga bevosita, pochta aloqa bo'limi orqali yoki elektron shaklda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma olingan holda taqdim etiladi.

Litsenziya olish uchun adliya organiga taqdim etilgan hujjatlar mas'ul shaxs tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, uning nusxasi hujjatlar qabul qilingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda talabgorga yuboriladi (topshiriladi) va adliya organi tomonidan yoki axborot tizimi orqali qonun hujjatlarida belgilangan tartibda elektron shaklda ular olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma olingan holda ro'yxatdan o'tkaziladi.

5-bosqich: Belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishi shart⁴⁴.

6-bosqich: Talabgorga advokatlik guvohnomasi advokatlik tuzilmasi ro'yxatdan o'tkazilgan yoki talabgorning faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmasiga kirganligini

⁴⁰ Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.

⁴¹ Давлятов В. Малакали юридик ёрдам кўрсатиш-адвокатура институтининг асосий вазифаси сифатида //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 112-121.

⁴² Давлятов В. Давлат ва адвокатура ўртасидаги муносабатларнинг ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/5. – С. 297-302.

⁴³ Ибратова Ф. Б. ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БАНКРОТСТВА ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ ИЛИ ФИЗИЧЕСКОГО ЛИЦА, УТРАТИВШЕГО СТАТУС ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ //Polish Journal of Science. – 2021. – №. 38-2. – С. 20-24.

⁴⁴ Нурумов Д. Вопросы дальнейшего совершенствования организационноправового механизма оказания адвокатом юридической помощи субъектам предпринимательства //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 6/5. – С. 302-316.

tasdiqlovchi hujjatlar adliya organi tomonidan olingan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida beriladi⁴⁵.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda beriladigan advokatlik guvohnomasi advokatning maqomini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Talabgor advokatlik guvohnomasi berilgan kundan e'tiboran advokat maqomini oladi, Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi adliya organi tomonidan bu haqda uch kunlik muddatda xabardor qilinadi. Shunday xabarnoma olingan paytdan e'tiboran advokat Advokatlar palatasining a'zosi bo'ladi⁴⁶.

Belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxs advokatlik faoliyatini o'z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda amalga oshirishga yoxud boshqa advokatlar (shariklar) bilan advokatlik firmasini yoki a'zolikka asoslangan advokatlar hay'atini tuzishga yoxud faoliyat ko'rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishga yoki yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o'z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshirishga haqli⁴⁷.

"Litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va litsenziya berish to'g'risida yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish tartibi" deb nomlangan ikkinchi paragrafda talabgor tegishli ishlarni amalga oshirgandan so'ng litsenziya berish masalasini ko'rib chiquvchi organ tomonidan amalga oshiriladigan ishlar bayon etilgan.

Jumladan, Arizani ko'rib chiqish va litsenziya berish to'g'risida yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish tartibi "Advokatlik faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Nizomga asosan, litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun talabgordan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida yig'im undiriladi⁴⁸.

Shuningdek, undirilgan yig'im summasi adliya organi hisob raqamiga o'tkaziladi. Talabgor bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarib berilmaydi⁴⁹.

Talabgorning arizasi adliya organi tomonidan **yigirma kun** muddatda ko'rib chiqiladi. Alohida hollarda, kelib tushgan hujjatlar qo'shimcha, shu jumladan, mustaqil ekspertizadan o'tkazilganda adliya organi rahbari yoki uning o'rinbosari ushbu muddatni uzaytirishi, biroq 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirishi mumkin.

⁴⁵ Esenbekova P. et al. LEGAL NEGOTIATION ISSUES: THE IMPORTANCE AND TYPES //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2021. – №. 75-2. – С. 17-20.

⁴⁶ Давлятов В. Х. АДВОКАТУРА ИНСТИТУТИНИНГ ТАШКИЛИЙ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 7. – №. 4.

⁴⁷ Babakulovna I. F. et al. COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME MEASURES OF PROCEDURAL COERCION IN THE FIELD OF CIVIL PROCEDURAL LAW //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 173-184.

⁴⁸ Маматкулов К. Г. и др. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЮРИДИК ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ //ЮРИСПРУДЕНЦИЯ. – 2022. – Т. 3. – №. 6.

⁴⁹ Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT VOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.

Talabgorning arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga ko'rib chiqish natijalariga ko'ra adliya organi quyidagilardan qarorlardan birini qabul qiladi:

- litsenziya berish to'g'risida;
- litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror

Adliya organi talabgorni qabul qilingan qaror to'g'risida *uch kun* muddatda xabardor qiladi. Litsenziya berish to'g'risidagi qaror adliya organi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi⁵⁰.

Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingani haqidagi bildirishnoma talabgorga yozma shaklda bank hisob raqami rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi)⁵¹.

Adliya organi tomonidan litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganda, litsenziya talabgor davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgandan keyin ikki kun muddatda beriladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, agar talabgor litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan (topshirilgan) vaqtdan boshlab *uch oy* ichida litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni adliya organiga taqdim etmasa adliya organi litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi⁵².

"Adliya organi quyidagi hollarda litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:

1. talabgor malaka imtihonini topshirgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgandan keyin malaka imtihonini qayta topshirmasdan murojaat qilsa;
2. hujjatlarning to'liq ro'yxatini topshirmasa yoki ularni nomuvofiq ravishda rasmiylashtirsa;
3. yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish staji bo'lmasa, shuningdek, advokatlik tuzilmasida kamida uch oylik stajirovkadan o'tmagan bo'lsa⁵³;
4. talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda haqiqat bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lsa;
5. talabgor belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilsa, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan bo'lsa;
6. litsenziyasining amal qilish muddati tugagan shaxs qonunga muvofiq talabgor bo'lishi mumkin bo'lmagan uch yillik muddat o'tmagan bo'lsa⁵⁴.

⁵⁰ Ибратова Ф. Б., Чориев М., Собиржонов О. ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПРОКУРОРА, ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ИНЫХ ЛИЦ //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 14-22.

⁵¹ Ganiyeva M. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола //Архив научных исследований. – 2019.

⁵² Узбекистан У. П. Р. О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах в «Год активных инвестиций и социального развития //№ УП-5635. – 2019. – Т. 17.

⁵³ Babakulovna I. F., Normuratovna E. Z. Legal Issues of the Concept of "Corporate Disputes" Under Procedural Legislation: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 341-346.

Bizning fikrimizcha, advokatlik faoliyati notijorat faoliyat ekanligi, uning mohiyati "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi talablariga javob bermasligini hisobga olib, mazkur faoliyatni litsenziyalash tartibini bekor qilish zarur.

Bundan tashqari, mavjud mexanizm advokatlik faoliyatini davlat boshqaruv organlariga qaram bo'lib qolishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi, chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, adliya organlari advokatlar faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda belgilangan adliya organlari tomonidan advokatlik faoliyatini majburiy litsenziyalash holatiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Ushbu holat aniq davlat "hokimiyat"i hisoblangan, aniqrog'i advokatlik faoliyatini litsenziyalash vakolatiga ega bo'lgan davlat adliya boshlig'i tomonidan uzluksiz bilvosita "ta'sir, bosim, majburiyat" ni ta'minlaydi. Mazkur bilvosita "ta'sirlar, bosimlar, majburiyatlar" boshqa davlat organlarining(sud, prokuratura, ichki ishlar organlarining) qiziqishlari orqali advokatlik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri aralashuviga osongina aylanib ketishi mumkin. Shunday qilib, tan olishimiz kerakki, advokatlik faoliyatini litsenziyalash instituti advokatlarni "bilvosita" emas, balki advokatlar yuridik xizmat ko'rsatib, o'zlarining konstitusiyaviy majburiyatlarini amalga oshirishda davlat organlari va boshliqlariga mutlaq qaramligiga e'tiroz bildirishlarga to'g'ri keladi."

Rossiyalik huquqshunos olim G.M.Reznik bu borada to'g'ri fikr bildirgan: "advokatura – na siyosiy, na tadbirkorlik tashkilotidir, shuning uchun mazkur faoliyat ustidan davlat rahbarlik qilishi kerak degan gaplarni to'xtatish kerak. Agar advokatura qaram bo'lsa, unda buni advokatura deb nomlab bo'lmaydi va uni boshqacha nom bilan atash kerak"⁵⁵.

Shuningdek, rus huquqshunosi A.Romanenkov (Moskva Advokatlar palatasidagi advokat) 2010-yilda O'zbekiston Respublikasi misolida advokaturani isloh qilishga bag'ishlangan maqolasini taqdim etgan.

Muallif o'z maqolasida, litsenziyalash tizimining mavjudligini tanqid qiladi, litsenziyalash davlatning progressiv qadami emasligini ta'kidlaydi, chunki bu advokat maqomining mustaqilligiga va advokaturaga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlarga zid hisoblanadi va advokatning yuridik yordami O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq emas⁵⁶.

Shu munosabat bilan advokatlik faoliyatini litsenziyalashga mos tartibni topish zarur. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda bu turlicha amalga oshiriladi. Shu jumladan, AQShda advokat maqomini tasdiqlovchi patent beriladi, Yaponiyada advokatlar ro'yxatiga kiritiladi,

⁵⁴ Babakulovna I. F. LEGAL ISSUES OF INDIVIDUAL DEBT RESTRUCTURING UNDER THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2023. – T. 1. – №. 7. – С. 43-54.

⁵⁵ Babakulovna I. F. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF VOLUNTARINESS IN THE PROCESS OF MEDIATION IN THE SETTLEMENT OF DISPUTES IN UZBEKISTAN //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – С. 308-315.

²⁹ Мирзиёевнинг П. Ш. Конституция ва қонун устуворлиги-ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. – 2019.

Rossiyada malaka komissiyalari tomonidan qaror qabul qilinadi. Ta'kidlab o'tish joizki mazkur jarayon advokatlarning mustaqil organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, litsenziya o'rniga O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tomonidan sertifikatlash tizimini joriy etish kerak. Unga ko'ra, talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, advokatlik maqomini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'ladi. Mazkur sertifikat namunasi Advokatlar palatasi tomonidan belgilanadi va Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari tomonidan beriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кодиралиев С., Тулаганова Г. Роль адвоката в реализации права на защиту и квалифицированную юридическую помощь, установленного Конституцией Республики Узбекистан //Review of law sciences. – 2020. – Т. 1. – №. Спецвыпуск. – С. 152-156.

2. ЮНУСОВ Х. ЮРИДИК ХИЗМАТ ВА КАСБИЙ ФАОЛИЯТ: МЕҲНАТ БОЗОРИДАГИ ИМКОНИЯТЛАР, ЮРИДИК ФАОЛИЯТ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА АДВОКАТЛИК ЛИЦЕНЗИЯСИ (АҚШ ТАЖРИБАСИ) //ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 115-120.

3. Матмуротов А. Малака имтиҳонини топшириш тартибини такомиллаштириш масалалари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 12/8. – С. 205-221.

4. Нетьматов Ж. Адвокатура институтини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 8-13.

5. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.

6. Матмуротов А. Ўзбекистонда адвокатура институтининг ривожланиш босқичларида адвокат мақомига эга бўлишга қўйилган талаблар таҳлили //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 19-29.

7. Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG 'LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 96-104.

8. Nurumov D. Адвокат томонидан тадбиркорлик фаолиятига юридик хизмат кўрсатишнинг ҳуқуқий механизми //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 44-48.

9. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT VOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.



10. Давлятов В. Адвокатура институтининг ташкилий шакллари сифатида адвокатлик тузилмаларининг мақоми //Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 70-79.
11. Davlyatov V. Адвокатура институтини такомиллаштиришда юридик маслаҳатхонанинг ҳуқуқий мақоми //O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2019. – №. 3. – С. 20-22.
12. Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING ROLI VA AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 196-207.
13. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 5-13.
14. Давлятов В. Малакали юридик ёрдам кўрсатиш-адвокатура институтининг асосий вазифаси сифатида //Сотрудничество ташкентского государственного юридического университета и палаты адвокатов в совершенствовании адвокатского института. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 112-121.
15. Давлятов В. Давлат ва адвокатура ўртасидаги муносабатларнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/S. – С. 297-302.
16. Ибратова Ф. Б. ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БАНКРОТСТВА ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ ИЛИ ФИЗИЧЕСКОГО ЛИЦА, УТРАТИВШЕГО СТАТУС ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ //Polish Journal of Science. – 2021. – №. 38-2. – С. 20-24.
17. Нурумов Д. Вопросы дальнейшего совершенствования организационно-правового механизма оказания адвокатом юридической помощи субъектам предпринимательства //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 6/S. – С. 302-316.
18. Esenbekova P. et al. LEGAL NEGOTIATION ISSUES: THE IMPORTANCE AND TYPES //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2021. – №. 75-2. – С. 17-20.
19. Давлятов В. Х. АДВОКАТУРА ИНСТИТУТИНИНГ ТАШКИЛИЙ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ //ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
20. Babakulovna I. F. et al. COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME MEASURES OF PROCEDURAL COERCION IN THE FIELD OF CIVIL PROCEDURAL LAW //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 173-184.
21. Маматкулов К. Г. и др. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЮРИДИК ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ //ЮРИСПРУДЕНЦИЯ. – 2022. – Т. 3. – №. 6.



22. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 86-92.
23. Ибратова Ф. Б., Чориев М., Собиржонов О. ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПРОКУРОРА, ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ИНЫХ ЛИЦ //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 14-22.
24. Ganiyeva M. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича илмий-оммабоп рисола //Архив научных исследований. – 2019.
25. Узбекистан У. П. Р. О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах в «Год активных инвестиций и социального развития //№ УП–5635. – 2019. – Т. 17.
26. Babakulovna I. F., Normuratovna E. Z. Legal Issues of the Concept of “Corporate Disputes” Under Procedural Legislation: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 341-346.
27. Babakulovna I. F. LEGAL ISSUES OF INDIVIDUAL DEBT RESTRUCTURING UNDER THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 43-54.
28. Babakulovna I. F. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF VOLUNTARINESS IN THE PROCESS OF MEDIATION IN THE SETTLEMENT OF DISPUTES IN UZBEKISTAN //Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. – 2021. – С. 308-315.
29. Мирзиёевнинг П. Ш. Конституция ва қонун устуворлиги-ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. – 2019.